BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA KORXONA MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHDA TRANZAKSION XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH (“OKMK” AJ MISOLIDA)

Jo‘rayeva Zulayho Zafar qizi
Geologiya fanlari universiteti
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. *Maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish masalasi nazariy jihatdan o‘rganilgan. Shunga ko‘ra, “Olmaliq KMK” AJ misolida korxonaning moliyaviy holati, eksport salohiyati hamda investitsiya loyihalari tahlil qilingan. Ayni shu ko‘rsatkichlarga asoslangan holda, tranzaksion xarajatlarni kamaytirishda raqamli texnologiya, ya’ni blockchain tadbiq etilishining iqtisodiy samaradorligi shartli ravishda yoritib berilgan.*

Abstract. *The article theoretically studies the issue of effective management of financial resources of industrial enterprises in conditions of sustainable economic development. Accordingly, the financial condition, export potential and investment projects of the enterprise are analyzed on the example of "Almalyk KMK" JSC. Based on these indicators, the economic efficiency of the implementation of digital technology, namely blockchain, in reducing transaction costs is illustrated in a conditional manner.*

Аннотация. *В статье теоретически исследуется вопрос эффективного управления финансовыми ресурсами промышленных предприятий в условиях устойчивого экономического развития. Соответственно, на примере АО «Алмалык КМК» анализируются финансовое состояние, экспортный потенциал и инвестиционные проекты предприятия. На основе этих показателей в условном виде иллюстрируется экономическая эффективность внедрения цифровых технологий, а именно блокчейна, в снижении транзакционных издержек.*

Kalit so‘zlar: *Moliyaviy resurslar, eksport, tranzaksion xarajatlar, raqamli transformatsiya, CBAM (uglevod solig‘i), ESG, OKMK AJ, investitsiya.*

Kirish: Bugungi kunda zamonaviy raqamli transformatsiya hamda “Yashil iqtisodiyot” sharoitida mavjud nazariyalarga tayangan holda davriy xususiy qonuniyatlardagi tebranishlar natijasida qayta ko‘rib chiqib, jarayonga muvofiqlashtirishni taqozo qilmoqda. Aynan shu omillarni hisobga olgan holda, iqtisodchi olimlari va Nobel mukofoti sovrindorlari Ronald Kouzning tranzaksion xarajatlar[1] va Duglas Nortning institutsionalizm[2] nazariyalari tog‘-kon sanoatida moliyaviy resurslarslarni boshqarishdagi samarali yo‘llarini ishlab chiqish, hamda amaliy jarayonga

[1] Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. Economica, 4(16), 386-405.
[2] North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

transformatsiya qilinishni talab qilmoqda. Shu boisdan, maqolada ushbu nazariy yondashuvlar fundamental ahamiyati va jarayonga qanday tadbiq qilish izohlangan.

Ronald Kouz bozor operatsiyalarida asosiy xarajatlari ma'lumot qidirish, audit va shartnoma nazorati deb hisoblagan hamda bu xarajatlarning yuqori bo'lishini samaradorlik ko'rsatkichi pasayishiga olib keluvchi omil sifatida baholagan. Demak, Blockchain texnologiyasi orqali tog'-kon mahsulotini kelib chiqishini tekshirish audit xarajatlarini minimumga tushiradi, bu esa o'z navbatida Nash muvozanatiga ko'ra, xaridorning mahsulotlarni bizdan sotib olishiga turtki beradi.

Nobel mukofoti sovrindori Duglas Nort iqtisodiy rivojlanishning asosini institutsional ya'ni, qonunlar, standartlar, qoidalardir deb izohlagan va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi degan nazariyani ilgari surgan. Shunga asoslanib, xalqaro ESG va CBAM standartlari va solig'i shunchaki to'siq emas, balki "Institutsional renta" ya'ni, "Ustama narx" sifatida qayta talqin qilinishi uchun fundamental asosdir.

Asosiy qism: Institutsional rentani shakllantirish, ya'ni, eksport zanjiriga maxsus "Institutsional filtr" o'rnatiladi. Ushbu mexanizm 3 ta komponent asosiga quriladi. Ulardan biri, yashil standard — uglerod bojlaridan ozod bo'lish, ya'ni, soliq optimizatsiyasi bo'lsa, ikkinchisi, raqamli shaffoflikni ta'minlash, demak, monitoring hamda audit xarajatlarini 70-80%gacha qisqartirishni o'z ichiga olsa, uchinchisi, ijtimoiy mas'uliyat hisoblangan ESG reytingining oshishi va arzonroq kredit liniyalariga yo'ldir. Natijada, ustama narx olish, mijozlarning lock-in-effect tamoyili asosida bog'lanib qolishi va strategik hamkorlik maqomiga erishish maqsad qilinadi. Aynan shu strategik og'ish matritsasini tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqi 2023-yildan boshlab po'lat, alyuminiy, sement va elektr energiyasi importiga aynan CBAM, ya'ni, uglerodli chegara solig'ini joriy etishni boshlagan. Agar mis yoki alyuminiy kabi xomashyo qazib olinayotganida atmosferaga ko'p CO_2 chiqarilgan bo'lsa, importyor olib kirayotgan har bir tonna uchun uglerod jarimasini to'laydi. Shunga ko'ra, strategik og'ish orqali yashil standartga o'tilsa, xaridor Yevropada ushbu soliqdan tonnasiga o'rtacha 80-100 yevro ozod bo'ladi. Aynan shu tejab qolingan pulning bir qismi bizga "ustama narx" bo'lib qaytadi.

AQSh va Yevropa normativ-huquqiy qonunlari "Dodd-Frank-Act"ga ko'ra, agar kompaniya ishlab chiqargan mahsulotining tarkibidagi metal qayerdan kelganini, u yerda bolalar mehnati ishlatilmaganini isbotlab berolmasa, juda katta reputatsion jarima hamda qo'shimcha audit audit xarajatlarini to'lashga majbur bo'ladi. Shuning asosida, ijtimoiy-madaniy brendimiz hamda blockchain orqali har bir kg mahsulotimiz toza ekanligini ta'minlab bersa, importyor audit xarajatlarini 5-10% ga qisqartiradi.

Agar korxona bizning stategik og'ish natijasida yaratilgan yashil misni olsa, Xalqaro moliyaviy institutlardan past foizli kreditlar olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ESG standartlarini to'liq joriy etishning negizida yotadi.

Natijada, tashqi bojlar, tranzaksion xarajatlar, kapital xarajatlari kamayishiga xizmat qiladi.

Eksport — bu davlatlararo bitim emas, balki korxonalararo oldi-sotdi operatsiyalari mexanizmi. Ammo, sof kapitalistik iqtisodiyotda xususiy korxonalar davlat o'rnatgan soliqlar, bojlar, kvotalar ichida harakat qiladi. Shuning uchun, yashil mis konseptsiyasi ayni korxona foydasini maksimal darajaga chiqarishga yordam beradi. Chili va Avstraliya kabi davlatlar ushbu mexanizmni ishlab chiqib amaliyotga tadbiq qilmoqda. Chili — dunyodagi eng yirik mis eksportchisi. Ular shunchaki mis sotishdan vos kechib, "Green Copper" standartini yaratishdi. Chili davlat kompaniyasi bo'lgan Codelco va xususiy konlar misni faqat qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol) yordamida qazib olishni sertifikatlaydi. BMW, Tesla va boshqa xususiy gigantlar

Chili misini raqobatchilardan ko‘ra 5-7% qimmatroq sotib olishadi. Chunki bu misni import qilish orqali ular o‘z mamlakatlarida “ekologik jarima” to‘lashmaydi. Avstraliyaning temir rudasi va litiy qazib oluvchi Rio Tinto va BHP (xususiy korporatsiyalar) kompaniyalari “Shaffof ta’minot zanjiri” standartini joriy qildi. Ular har bir tonna ruda uchun raqamli “pasport” beradi. Bu pasportda ruda qazish jarayonida ishchilarga qancha haq to‘langani va atrof-muhitga qancha zarar yetgani yoziladi. Uning importyorlari hisoblangan Xitoy va Yaponiya po‘lat zavodlari xususiy korxonalar bu “toza” rudani olishga majbur, chunki, xalqaro banklar “toza” xomashyo ishlatgan zavodlarga past foizli kredit beradi.

“OKMK” AJ misolida tahlil.

S&P Global — bu to‘g‘ri moliyaviy qaror qabul qilish maqsadida, moliya bozori uchun tahliliy ma’lumotlar, kredit reytinglari hamda benchmark ko‘rsatkichlarini taqdim etuvchi, ikkita yirik moliyaviy nashriyotning birlashishidan kelib chiqqan dunyodagi eng yirik Amerika korporatsiyasidan biri hisoblanadi va S&P 500 indeksini boshqaradi. Bu indeks AQShning eng yirik 500 ta kompaniyasining aksiyalari dinamikasini aniqlab boradi hamda jahon iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Demak, SWOT hamda VRIO tahlillariga ko‘ra, S&P Global va Fitch Ratings tomonidan OKMKga “B+”, “BB-” barqaror darajasi berilgan. Xalqaro moliya tilida bu darajalar spekulyativ yoki investitsion bo‘lmagan reyting deb izohlanadi. Demak, bu kombinatning qarzini to‘lash qobiliyati borligini, ammo u tashqi iqtisodiy vaziyatga, masalan, jahon bozorida mis narxining o‘zgaruvchanligiga bog‘liqligini bildiradi. Shunga ko‘ra, “B+” o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga layoqatli ekanligini, lekin tashqi omillar ta’siri natijasida yuzaga keladigan risklar mavjudligini anglatsa, “BB-” barqaror darajasi bir pog‘ona ustunlik beradi nisbatan, bu reyting barqaror va defolt xavfi kamroq ekanini ko‘rsatadi. Korporatsiya tomonidan berilgan barqaror prognozi yaqin kelajak 12-24 oy uchun xulosasi bo‘lib, bu reyting yaqin orada pasaymasligini yoki ko‘tarilmasligini, balki kombinat o‘z darajasini barqaror saqlab turadi degan ma’noni bildiradi. Bu esa, investorlar uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Bu reytinglar qanchalik yuqori bo‘lsa, ya’ni, pog‘onasi oshib borsa, xalqaro banklar OKMKga shuncha past foizli kredit beradi. Aynan shu omil darajasi dunyodagi yirik investorlar OKMK aksiyalari yoki obligatsiyalarini sotib olish imkoniyatini belgilab beradi. Ushbu reytinglar yangi loyihalarni moliyalshtirish uchun juda zarur va mis narxiga yoki aksiyalariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Natijada, moliyaviy quvvatini belgilovchi omil bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 16-mart kuni 2026-yil 3-mis boyitish fabrikasining ilk bosqichi — filtrlash korpusining ko‘zdan kechirilishi kombinatning nafaqat hududiy, balki global miqyosdagi o‘rnini mustahkamlaydi.

“Yoshlik-1” va “Qalmoqqir” konlaridagi 45 million tonna mis va 5 ming tonnadan ziyod oltin zaxirasi O‘zbekistonni mis xomashyosi bo‘yicha dunyodagi eng yirik ishtirokchilar qatoriga olib chiqadi hamda mamlakatning strategik xavfsizligi bo‘lib xizmat qiladi. 100 yillik kafolatli xomashyo bazasi bu kamida uch avlod uchun barqaror ish o‘rinlari va budjet tushumlari demakdir.

Yangi ochilgan MBF-3 zamirida yuqori texnologiyaga asoslangan, samaradorlik va qo‘shimcha qiymat hosil qiladi, ya’ni faqat xomashyo emas, balki tayyor konsentrat va kelgusida yuqori sifatli mis katodi ishlab chiqarish hajmi Keskin oshadi. Natijada, S&P Global reytinglari oshadi va investorlar uchun ishonchli hamkorga aylanadi. Bu loyihaning ishga tushganligi davlatimiz uchun mis klasteriga aylanish yo‘lidagi islohotlarning eng katta bo‘lagidir.

Hozirda OKMK davlat korxonasi bo‘lganligi tufayli uning bir qismi davlat budjeti bilan chambarchas bog‘langan. Agar kompaniya aksiyalarining sezilarli qismi, masalan, 15-25 % xalqaro investor qo‘liga o‘tsa, OKMK mustaqil yuridik shaxs sifatida maqomini mustahkamlagan bo‘ladi. Natijada, OKMK “davlatning bir bo‘lagi” emas, balki “o‘z mablag‘larini mustaqil boshqaradigan korporatsiya” deb reyting olishiga yo‘l ochadi. IPOga chiqish OKMK xalqaro standartlarga to‘liq moslashishini talab qiladi. Har chorakda xalqaro auditorlar hisobotlarini tekshiradi va bu shaffoflik, korporativ boshqaruvdagi ishonchni ta’minlab beradi. Aksiyalarni ochiq savdoga chiqarish OKMKga moliyaviy mustaqilligini ta’minlab, milliardlar dollar tog‘ridan-tog‘ri investitsiya jalb qiladi. Kredit olganda foiz to‘lash majburiyati borligi reytingga bosim o‘tkazadi, aksincha, aksiylarni sotganda esa qaytarish sharti bo‘lmagan sarmoya keladi. Demak, qarz emas, sarmoya tamoyili ishlaydi. Bu esa o‘z navbatida, OKMKning balansini barqarorlashtiradi va reyting agentliklari tomonidan yuqoriroq baho beriladi.

1-rasm. Vernon tahlili. Institutsional yondoshuv[3].

Blockchain-monitoring tatbiq etish va marketing strategiyalarini optimallashtirish.

Mis eksport qilish jarayoni dastabki qazib olishdan to iste’mol bozori, ya’ni, yakuniy iste’molgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni monitoring qilish aynan blockchain-monitoring mohiyati hisoblanadi. Bunga kelib chiqish sertifikati, ekologik standartlar ESG reytingi, logistik samaradorlik darajasi kabi bir qator omillar hisobga olingan holda monitoring qilinadi. OKMK AJ LMEga mahsulot yetkazib beruvchi yirik ishtirokchi sanaladi. LMEpassport tizimida OKMK brendi ro‘yxatdan o‘tgan, lekin har bir tonna mis uchun individual raqamli “passport”, ya’ni, blockchain-monitoring to‘liq joriy qilishni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Buning uchun har bir tayyor



mis katodi yoki o‘ramiga maxsus QR-kod yoki RFID-tag foydalaniladi chunki bu mahsulotning qaysi kondan, qancha muddatda ishlab chiqarilganligi hamda laboratoriya tahlili natijalari haqida ma’lumot olish imkonini beradi. Keyingi bosqichlarda LMEpassport bilan integratsiya bo‘lib, bunda yuborilgan hujjatlar asosida OKMK mahsulotning ESG ko‘rsatkichlarini LMEpassport platformasiga yuklaydi. Bu jarayonning tashkil qilinishi importyor QR-kodni skanerlaganida, mahsulot sifatini va boshqa ko‘rsatkichlari bilan tanishib chiqish imkonini beradi. Umumiy olganda, OKMKning xalqaro barqarorlik sertifikatlarini ko‘ra oladi va sodiq hamkorga aylanishi mumkin.

Blockchain zanjirini yaratish — ma’lumotlarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan zanjirga kiritishni o‘z ichiga oladi. Bu tizim logistika yo‘nalish harakatining nazoratini beribgina qolmay, mis

[3] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xaridorga yetib borgach, tizim avtomatik ravishda “yetkazildi” xabarini beradi bu esa to‘lov jarayonini tezlashtiradi.

Pasport joriy qilingach, OKMK marketing strategiyasini yuqorida keltirilgan “Yashil mis” tamoyili asosida ishlatsa bu pasportda aks etadi va nazarda tutilgan ustama narx hisobiga qimmatroq sotish imkonini beradi. Shu bilan birga bu mexanizm to‘liq ishga tushishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri nufuzli gigant korxonalar bilan sotuv amalga oshirish uchun vositachisiz shartnoma tuzishni osonlashtiradi, yani, yangi bozor, yangi hamkor, yangi yo‘l ochadi.

Natija: Shartli hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, eksport jarayonlariga taklif qilingan mexanizm qo‘llanilsa, mahsulotning bozordagi qiymatini oshirish va operatsion xarajatlarni Keskin kamaytirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Demak, an’anaviy tizimda 1 tonna mahsulot eksporti uchun sarflanadigan tranzaksion xarajatlar 625 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, blockchain tizimida bu ko‘rsatkich 125 dollargacha, ya’ni 5 baravargacha qisqargan. Logistika vas ug‘urta 150 dollar, audit va risklarni boshqarish 130 dollar, hamda bank va hujjat aylanishi 125 dollar tranzaksion xarajatlarning qisqarishi yuzaga kelmoqda.

Tizim joriy etilishi ustama sabab narx 3 %ga oshgan 375 dollar tejamkorlik hisobiga har bir tonna mahsulotdan qo‘shimcha 875 dollar samaradorlik bermoqda. Solishtirma samaradorlik 3-7 % atrofida ijobiy o‘sish kutilgan.

Natijada, yillik umumiy iqtisodiy samara 87,5 million dollarga teng bo‘lmoqda. Agar faqatgina narx o‘sishi hisobiga shakllangan bo‘lsa, yillik sof iqtisodiy foyda 37,5 million dollarni tashkil etadi. Har bir tonna mahsulotdan olinadigan 875 dollarlik qo‘shimcha samara loyihaning o‘zini oqlash muddati qisqa ekanligini xalqaro raqobatbardoshlikni tubdan oshirishini anglatadi.

Xulosa va takliflar

OKMK AJ misolida amalga oshirilga tahlillar asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jahon bozorida mis mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda hamda prognozlar ham bu sohada talab yuqori bo‘lishi, taqchillik hollari kuzatilishi mumkinligini asoslab bermoqda. Ayni shu omillar OKMK eksportning samarali yo‘llarini ishlab chiqish uchun taklif etilgan raqamli blockchain texnologiyasini eksport zanjirida qo‘llashini rag‘batlantiradi. Uning komponentlariga asoslangan model orqali jarayonga amaliy yondoshuvi bo‘lsa, kontragentlarni tekshirish jarayoni, hujjat aylanishi boshqa yuqorida nomi sanalgan barcha tranzaksion xarajatlar amalda 625 dollardan 125 dollargacha, ya’ni 5 baravar qisqarishi imkonini beradi. Boshqa tarafdan, mamlakatimiz tog‘-kon sanoatining eksportini oshirishning eng samarali yo‘li qo‘shimcha qiymat yaratish bo‘lgan “Mis klasteri” doirasidagi misni chuqur qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish orqali bu ko‘rsatkich 2,2 baravardan 3 baravargacha oshirish mumkin. Bu nafaqat mamlakatga valyuta tushumini ko‘paytiradi, balki tarmoqda yangi va barqaror ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Eksportni rag‘batlantirishda nafaqat iqtisodiy, baki ijtimoiy, ya’ni institutsional omillar ham muhim ahamiyatga ega. Aynan taklif etilgan institutsional renta koeffitsiyenti orqali eksport jarayonida byurokratik to‘siqlarni doimiy monitoring qilib boorish zarur. Ushbu mexanizm OKMKga joriy etilishi JSTga a’zo bo‘layotgan bir vaqtda tashqi bozorda raqobatbardoshlikni o‘rtacha 15-20 foizga oshiradi.

Global ekologik standartlar ESG va CBAM uglerod solig‘i mexanizmi joriy qilingan bozor sharoitida korxona ayni shu talablarga to‘liq moslashishini taqozo qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan ushbu chora-tadbirlar yig‘indisi davlatimiz iqtisodiyoti va kelajagi uchun, tog‘-kon sanoati korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yangi bosqichlarga

olib chiqishga, eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga moliyaviy resurslar boshqaruvini optimallashtirishga xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akromov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili.–T.: Moliya, 2010, -223 b.
2. Usmonov R.A. “Sanoat tarmoqlari iqtisodiyoti”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 298 bet.
3. Aguilar F.J. (1967), Scanning the Business Environment, Macmillian.
4. Cadle, J., Paul, D. and Turner, P. (2010), Business Analysis Techniques, 72 Essential Tools for Success, BCS The Chartered Institute for IT.
5. Vahabov A.V.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015.
6. Iqtisodiyot nazariyasi darslik 2-qism. Sh.Shodmonov, Toshkent-2025.-35b.
7. Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. Economica, 4(16), 386-405.
8. Nash, J. (1950). Equilibrium points in n-person games. Proceedings of the National Academy of Sciences.
9. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
10. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
11. Barney, J. B. (1991). Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management.